



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGI DIREKTORINING
B U Y R U G‘ I**

2025-yil 15-oktabr

435-son

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining
korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlarini
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvardagi PQ–81-son qarori ijrosini ta‘minlash hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini yanada oshirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PQ–147-son qaroriga asosan davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari ishini yangicha tizimda tashkil etish bo‘yicha asosiy va ustuvor vazifalar belgilab berilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ–81-son qaroriga muvofiq tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlarning mavjudligi va zaruratga qarab yangilanib borilishi “Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash”da inobatga olinishi;

Davlat aktivlari agentligida ISO 37001:2016 xalqaro standartiga asosan korrupsiyaga qarshi menejment tizimi joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan sertifikatlar berilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati **1-ilovaga** muvofiq;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy
boshqarmasi

K/R: 1-1131

2025-yil 27 -oktabr

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti **2-ilorvaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti **3-ilorvaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma **4-ilorvaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma **5-ilorvaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma **6-ilorvaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti **7-ilorvaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti **8-ilorvaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom **9-ilorvaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tizimida xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom **10-ilorvaga** muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqacha tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom **11-ilorvaga** muvofiq;

Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom **12-ilorvaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat aktivlari agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalari rahbarlari o'z faoliyatini mazkur buyruq bilan tasdiqlangan ichki qoidalar (*keyingi o'rinlarda – Ichki qoidalar*) talablari asosida tashkil etishga hamda ularga so'zsiz amal qilishga shaxsan mas'ul va javobgar etib belgilansin.

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'limi (Abduraxmonov):

a) Axborot texnologiyalarini joriy etish, raqamlashtirish va kiberxavfsizlik boshqarmasi (Sulaymonov) bilan birgalikda:

uch kun muddatda Ichki qoidalar Davlat aktivlari agentligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini;

o'n kun muddatda Davlat aktivlari agentligining barcha aloqa kanallari ishchi holatda ekanligini qayta ko'rib chiqib, aloqa kanallari haqida ma'lumotlar Davlat

aktivlari agentligining rasmiy veb-saytining bosh sahifasiga joylashtirilishini ta'minlasin;

b) Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (Fazilov), **Axborot xizmati bo'limi** (Erkaboyeva) bilan birgalikda **o'n besh kun muddatda**, Ichki qoidalarinig mazmun-mohiyatini xodimlarga yetkazish yuzasidan o'quv seminari tashkillashtirsin hamda natijasi yuzasidan Davlat aktivlari agentligining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga ma'lumot joylashtirsin;

d) Davlat aktivlari agentligi markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalarida xodimlar tomonidan Ichki qoidalarga rioya etilishini belgilangan tartibda o'rganib borib, tegishli takliflarni Davlat aktivlari agentligi rahbariyatiga kiritib borsin.

5. Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalari rahbarlari bir hafta muddatda:

barcha xodimlar Ichki qoidalar bilan belgilangan tartibda tanishtirilishini;

mazkur buyruq ijroga qaratilishini hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'zlarining ichki idoraviy hujjatlarini ushbu buyruqqa muvofiqlashtirilishini;

buyruq asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul tarkibiy bo'linma (xodim) biriktirilishi hamda u haqidagi ma'lumotlar Davlat aktivlari agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'limiga taqdim etilishini ta'minlasin.

6. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (Fazilov) **Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'limi** (Abduraxmonov) bilan birgalikda Davlat aktivlari agentligining hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalari rahbarlari kelgusida nomzodlar ishga qabul qilingunga qadar Ichki qoidalar bilan tanishtirib borilishini ta'minlasin.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'limi (Abduraxmonov) Davlat aktivlari agentligi tizimi xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Ichki qoidalarga rioya etilishi yuzasidan seminar tashkil qilib, **doimiy ravishda** tarbiyaviy profilaktik tadbirlarni o'tkazib borsin.

8. Davlat aktivlari agentligining 13-ilovaga muvofiq ayrim ichki idoraviy hujjatlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Davlat aktivlari agentligi direktorining o'rinbosarlari N. Xusanov, A. Miraliyev va M. Kadirov o'zlariga biriktirilgan tarkibiy bo'linmalarda Ichki qoidalarga rioya etilishi bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatilsin.

10. Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'limi (Sayfulloyev):

bir kun muddatda mazkur buyruq nusxalarini Davlat aktivlari agentligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalariga yetkazilishini;

uch kun muddatda markaziy apparatning barcha xodimlari Ichki qoidalar bilan belgilangan tartibda tanishtirilishini ta'minlasin.

11. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Direktor



A.Ortikov